

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jumal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jumaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
ZOKIROV I.I.

| | | |
|--|--|---|
| FARMONOV Sh. (O'zbekiston) BEZGULOVA O.S. (Rossiya) RASHIDOVA S. (O'zbekiston) VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) ZAYNOBIDDINOV S.(O'zbekiston) AXTARIYEVA R. (Rossiya) | JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya) LEEDONG WOOK (Janubiy Koreya) A'ZAMOV A. (O'zbekiston) KLAUS XAYNSGEN (Germaniya) RAKETIN O. (Rossiya) XOLMATOV B. (O'zbekiston) AYUBOV M. (O'zbekiston) | G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston) BERDISHEV A.S. (Qozog'iston) KARIMOV N.F. (O'zbekiston) CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya) TOJIBOYEV K. (O'zbekiston) TO'RAYEV A. (O'zbekiston) |
|--|--|---|

Tahririyat kengashi

| IJTIMOYIY GUMANITAR FANLARI BO'YICHA | | ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA | |
|---|--|---------------------------------------|-------------------------|
| EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston) | FarDU, p.f.d.prof. | MAMAJONOV M. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.b.f.d.dots. |
| XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston) | FarDU, p.f.d.prof. | KAXAROVA M (O'zbekiston) | FarDU, f.f.n.dots. |
| TOJIBOYEVA H. (O'zbekiston) | Ped.ilm.tad.instituti. p.f.d.(Dsc) | ISOMIDDINOV F. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.n. |
| O'RINOVA N. (O'zbekiston) | FarDU, p.f.n.dots. | SABIRDINOV A. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.d.prof. |
| ABBASOVA N. (O'zbekiston) | FarDU, p.f.b.f.d(PhD) | RAHIMOV Z. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.d. |
| DAVLYATOVA G. (O'zbekiston) | FarDU, p.f.n. | MIRZAYEVA D. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.b.f.d(PhD) |
| G'OFUROV A. (O'zbekiston) | FarDU, i.f.d.prof. | YULDASHEVA D. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.doktori. |
| XONKELDIYEVA G. (O'zbekiston) | FarDU, i.f.d.prof. | ANIQ VA TABIIY FANLAR BO'YICHA | |
| HOLMATOV B. (O'zbekiston) | FarDU, i.f.n. | QORABOYEV M. (O'zbekiston) | FarDU, f.m.f.d.prof. |
| XAKIMOV N. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.d. dots. | O'RINOV A.Q. (O'zbekiston) | FarDU, f.m.f.d.prof. |
| ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston) | FarDU, t.f.d. | KARIMOV E.T. (O'zbekiston) | FarDU, f.m.f.d.dots. |
| USMONOV B. (O'zbekiston) | FarDU, t.f.d (DSc) | OTAJONOV S. (O'zbekiston) | FarDU, f.m.f.d.prof. |
| MAXMUDOV O. (O'zbekiston) | FarDU, t.f.d.dots | RASULOV R. (O'zbekiston) | FarDU, f.m.f.d.prof. |
| QAHHOROVA M. (O'zbekiston) | Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d.prof. | ONARQULOV K. (O'zbekiston) | FarDU, f.m.f.d.prof. |
| MAMATOV M. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.d (PhD).prof. | SHUHRATOV SH. (O'zbekiston) | FarDU, t.f.b.f.d.dots. |
| AHRORQULOV A. (O'zbekiston) | FarDU, yu.f.b.f.d(PhD) | ASQAROV I. (O'zbekiston) | AnDU, k.f.d.prof. |
| SIDDIQOV I. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.d.dots. | IBRAGIMOV A.(O'zbekiston) | FarDU, k.f.d.prof. |
| G'ANIYEV B. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.d.dots. | MAMATQULOVA S. (O'zbekiston) | FarDU, k. f.b.f.d (PhD) |
| QOSIMOV A. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.d.prof. | ABDUG'ANIYEV O. (O'zbekiston) | FarDU, g.f.d.(DSc) |
| MAMAJONOV A. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.d.prof. | XOMIDOV G'. (O'zbekiston) | FarDU, b.f.d.prof. |
| ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.d.prof. | AXMADALIYEV Yu. (O'zbekiston) | FarDU, g.f.d.prof. |
| SHUKUROV R. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.n.dots. | YULDASHEV G'. (O'zbekiston) | FarDU, q.x.f.d.prof. |
| ZOKIROV M. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.n.prof. | DADAYEV S. (O'zbekiston) | TDPU, b.f.d.prof. |
| MO'MINOV S. (O'zbekiston) | FarDU, f.f.d.prof. | ISAG'ALIYEV M. (O'zbekiston) | FarDU, b.f.d.prof. |
| | | SHERALIYEV B. (O'zbekiston) | FarDU, b.f.d.(PhD). |
| | | SHERMATOV M. (O'zbekiston) | FarDU, b.f.n. dots. |

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.
Musahhihlar: Raximov J.
Mahmudov F.

Tahririyat manzili:
150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

| | |
|---|-----|
| F.A.Yuldashev Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari | 108 |
| M.M.Teshaboyev Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik | 115 |

SIYOSAT

| | |
|--|-----|
| H.M.Rasulov Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida | 120 |
| K.X.Avazov Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati..... | 124 |
| B.M.Jo'raquziev Yangi O'zbekistonda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining qaror topishi xususida | 129 |
| D.A.Mamajonova Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. ma'muriy, jinoyat va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish..... | 133 |
| I.A.Raximov "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining-milliy demokratik institut sifatidagi o'rni" | 138 |

TARIH

| | |
|--|-----|
| E.G.Radjabov Badiiy hamda san'at asarlarida o'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov talqini | 142 |
| B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov Ilk Temir davrida ko'mish marosimiga oid | 148 |
| X.S.Jumanazarov Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalar faoliyati tarixi..... | 154 |
| S.R.Tolibova O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo'nalishlari (Asean davlatlari misolida) | 159 |
| X.X.Azimov Qadimgi va ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo va Xitoy savdo aloqalari (Xitoy manbalari asosida) | 167 |
| K.S.Karimov Turkistonda mustamlaka huquqiy taksanomiyasi ta'sirida xalq sudyalari lavozimiga tayinlash tartiblari..... | 171 |
| N.Xudoyberdiyeva Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishi | 176 |
| F.U.Temirov Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va Sadriddin Ayniyning publisistik faoliyati | 179 |
| M.H.Isamiddinov O'zbekistonning antik davr moddiy madaniyatining o'ziga xos tomonlari..... | 183 |

ADABIYOTSHUNOSLIK

| | |
|---|-----|
| A.G.Sabirdinov Omon Muxtor romanlariga chizgilar | 188 |
| M.H.Mamatov, P.M.Ahmadchonov Sayfiddin Muhammad Farg'oniy ijodida tasavvufiy tamoyillar | 191 |
| P.M.Axmadjonov Sayf Farg'oniyning tarjimai holi va hayot yo'liga doir | 195 |
| G.H.Axmedova Ingliz adabiyotida jorj eliotning ijodi va tanqidiy realizm | 200 |
| G.V.Abdullayeva Topishmoq she'rlar va ularning badiiy-estetik funksiyasi | 204 |

INSON VA FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARINI ISHONCHLI HIMOYA QILISH KAFOLATLARINI TA'MINLASH. MA'MURIY, JINOYAT VA FUQAROLIK QONUNCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ГАРАНТИЙ НАДЕЖНОЙ ЗАЩИТЫ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА И ГРАЖДАН. СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ АДМИНИСТРАТИВНОГО, УГОЛОВНОГО И ГРАЖДАНСКОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

PROVIDING GUARANTEES OF RELIABLE PROTECTION OF THE RIGHTS AND FREEDOMS OF HUMANS AND CITIZENS. IMPROVEMENT OF ADMINISTRATIVE, CRIMINAL AND CIVIL LEGISLATION

¹Mamajonova Dilfuza Abdujabborovna

¹Farg'ona davlat universiteti, huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi demokratik tamoyillarga asoslangan bo'lib, O'zbekiston Konstitutsiyasi talablariga ko'ra inson huquqlari ustuvorligi ta'minlanadi. Har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti – harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Maqolada fuqarolarning ma'muriy, jinoiy va fuqarolik ishlari sudda ko'rib chiqilayotganda qonunchilikni takomillashtirish, sud hokimiyatining o'ri, vazifalari va ishlarini ko'rib chiqilishida adolatga erishishning chora-tadbirlari mavzusi yoritiladi.

Аннотация

Сегодня правовая система Республики Узбекистан основана на демократических принципах, обеспечивающих приоритет прав человека в соответствии с требованиями Конституции Узбекистана. Каждому человеку гарантируется право на обращение в суд в связи с незаконным поведением государственных органов, должностных лиц, общественных объединений при судебной защите своих прав и свобод.

В статье освещается тема мер по совершенствованию законодательства, достижению справедливости при рассмотрении роли, обязанностей и дел судебной власти, когда в суде рассматриваются административные, уголовные и гражданские дела граждан.

Abstract

Today, the law system of the Republic of Uzbekistan is based on democratic principles, ensuring the priority of human rights according to the requirements of the Constitution of Uzbekistan. Each person is guaranteed the right to appeal to the court for the unlawful conduct of state bodies, officials, public associations in the judicial protection of their rights and freedoms.

The article covers the topic of measures to improve legislation, achieve justice in the consideration of the role, duties and cases of the judiciary, when administrative, criminal and civil cases of citizens are considered in court.

Kalit so'zlar: Inson, huquq, sud hokimiyati, adolatga erishish, demokratik davlat, shaxs.

Ключевые слова: Человек, закон, судебная власть, достижение справедливости, демократическое государство, личность.

Key words: Man, law, judicial power, attainment of justice, Democratic State, person.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng xalqimiz o'z davlat boshqaruvi va taraqqiyotini o'zi hal qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Xalqimiz xohish-irodasining namunasi bo'lgan va xalqning muxtor vakillari siyomosida qabul qilingan Konstitutsiyada demokratik-huquqiy davlat qurish mamlakatimiz oldida turgan eng muhim masalalardan biri ekanligi belgilab berildi.

Huquqiy davlat qurish va uning qurilish prinsiplarini jamiyatda qaror toptirish jarayonida eng avvalo, respublikamiz fuqarolarining huquqiy bilim va madaniyatini oshirish dolzarb masalalardan biriga aylandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimiz rahbari davlat boshqaruvini yanada demokratlashtirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlar ko'lamini belgilab berar ekan, avvalo, boshqaruv sohasidagi o'zgartirishlar va shuning bilan bir qatorda bozor iqtisodiyoti prinsiplari qaror topib borayotgan bir sharoitda fuqarolar, tadbirkorlar va xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquq va erkinliklari yanada ishonchli muhofaza qilinishi lozimligini alohida ta'kidladi.

Bugungi kunda bizning huquqiy doktrinamiz demokratik tamoyillarga asoslangan bo'lib, eng avvalo, O'zbekiston Konstitutsiyasi talablariga ko'ra inson huquqlari ustuvorligini ta'minlaydi, har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti –harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini kafolatlaydi.

Konstitutsiyaning ushbu qoidasi umume'tirof etilgan xalqaro meyorlarga mos keladi. Xususan, "Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasining 8-moddasida aytilganidek:" "Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonunlari taqdim etgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda bunday huquqlarning vakolatli milliy sudlar tomonidan samarali qayta tiklanishini talab qilish huquqiga egadir". Bundan tashqari, xalqaro meyorlar davlatlarning sud himoyasida bo'lish imkoniyatlarini rivojlantirish borasidagi burchini ham ko'rsatib o'tadi ("Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi Xalqaro Paktning 2-moddasi).

Odil sudlovni amalga oshirish sifatini yaxshilash, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoyasi kafolatlarini kuchaytirish maqsadida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq,

birinchidan, sud organlari faoliyatining shaffofligini yanada ta'minlash, aholi bilan ochiq muloqotni kengaytirish va odil sudlovni amalga oshirishda jamoatchilik roli kuchaytirildi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi veb – saytida sud qarorlarini tizimli ravishda e'lon qilish tartibi joriy etildi;

uchinchidan, sudlar faoliyati to'g'risida har chorakda viloyat sudlari raislari va ularning o'rinbosarlari tomonidan muntazam – ravishda brifinglar o'tkazish yo'lga qo'yildi;

to'rtinchidan, sud hujjatining mazmun - mohiyatini sud protsessi ishtirokchilariga to'liq tushuntirib berish sud amaliyotiga kiritildi;

beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi sudlov hay'atlari tomonidan sud ishlarini nazorat tartibida, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan sudlar tomonidan sud ishlarini appelyatsiya va kassatsiya tartibida ko'rib chiqish amaliyotining obzorlarini har chorakda e'lon qilish qat'iy belgilab qo'yildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyul "Sud huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora - tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining sudyalarni tanlash va lavozimga tayinlashning xolisligi va shaffofligiga ishonchni oshirish maqsadida har bir hududda sudyalar korpusini shakllantirishga ko'maklashuvchi komissiyalar tuzildi.

Inson huquqlarini sud orqali himoya qilish va sud himoyasida bo'lishi muammosiga bo'lgan diqqat-e'tibor butunlay asoslidir. U yoki bu idoralar va mansabdor shaxslarning har qanday noqonuniy qarori, xatti – harakatlari yoki harakatsizliklari ustidan sudlarga hech qanday to'siqsiz murojaat qilish imkoniyati erkinlikning muhim sharti hisoblanadi. Sudga shikoyat bilan murojaat qilish, bunday shikoyat bilan ma'muriy tartibga shikoyat qilishga nisbatan qator afzalliklarga ega, chunki sudda ish ko'rish qat'iy qoidalar asosida bo'lishi qonun bilan tartibga solingan.

Bugungi kunda sudga bemalol murojaat qilish tamoyilning soni va shularga yetarli bo'lgan sudlar va sudyalar bilan ta'minlanishi; professional yuristlar ko'rsatadigan malakali yordamning yetarli bo'lishi; aholining kambag'al qatlamlari uchun ham odil sudlov bo'lishini ta'minlash; sudda ish ko'rishga oid qoidalarning soddalashtirilishi va tabaqalashtirilishi kabi dolzarb vazifalar ijrosiga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuni qayd etish zarurki, odil sudlovning amalga oshirilishi bir qator umume'tirof etilgan demokratik tamoyillar: qonunchilik, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi, barchaning qonun va sud oldida tengligi, fuqarolarning sud himoyasida bo'lishi, aybsizlik prezumpsiyasi, barcha sudlarda ishlarning ochiq ko'rib chiqilishi, sud ishlarini yuritish tili, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchining himoyalani huquqi bilan ta'minlanishiga asoslanadi.

Ushbu tamoyillar dasturiy, dastlabki qoidalar sifatida odil sudlovni tashkil etish, uning organlarining davlat mexanizmidagi va jamiyatning siyosiy tizimidagi, eng asosiysi, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi roli va o'rni haqidagi masalalarga doir qonunchilikning barcha talablari uchun negiz hisoblanadi.

Mamlakatimizda odil sudlovning rivojlanishi va takomillashishi amaliyotidan kelib chiqib, xalqaro hujjatlarda belgilangan qoidalar asosida odil sudlov demokratik negizlarining mazmuni

SIYOSAT

boyitilib borilmoqda. Ayniqsa, keyingi yillarda bunday jarayon ancha faollashganligini ko'rish mumkin.

Ma'muriy qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha. Ma'muriy qonunchilik davlat boshqaruvini tashkil etish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Ma'muriy qonunchilik – ijro etuvchi hokimiyatning tashkil qilinishi va amal qilishi jarayonida, davlat boshqaruvi faoliyatini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuidir.

NATIJA VA MUHOKAMA

O'tgan so'ngi yillar davomida ma'muriy qonunchilikni takomillashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi qabul qilindi. Shuningdek, eng asosiysi respublikamizda ma'muriy sudlar faoliyati tashkil etildi.

Ma'muriy qonunchilikni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni:

- ma'muriy qonunchiligi normalarini ko'rib chiqish va unifikatsiyalash;
- ma'muriy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini ma'muriy qonunchilik asosida ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlash;
- ma'muriy-protsessual qonunchilik normalarini tizimlashtirish va uyg'unlashtirish;
- ma'muriy protsessda shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligining samarali tizimini yaratish davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tinchlik va xavfsizlikni ishonchli himoya qilish bo'yicha ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, sud-tergov amaliyoti tahlili, shuningdek, xalq bilan bevosita muloqot natijalari ushbu sohada bir qator tizimli muammo va kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda, jumladan:

birinchidan, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish, jinoyat ishlari bo'yicha sudgacha va sud jarayonida qonuniylikni ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi huquqiy bo'shliqlarning mavjudligi;

ikkinchidan, jinoyatlarni profilaktika qilish va oldini olish, shuningdek, fuqarolarga yuksak huquqiy madaniyat va qonunga hurmat hissini singdirish borasidagi huquqiy mexanizmlarning yetarli darajada samarador emasligi;

uchinchidan, alohida turdagi jinoyatlarni sodir etganlik uchun sanksiyalar qilmishlarning ijtimoiy xavflilik xususiyati va darajasiga nomuvofiqligi, jumladan jazoning muqobil turlari, rag'batlantiruvchi normalar va jamoat ta'sir choralari yetarli darajada qo'llanilmasligi va samarasizligi;

to'rtinchidan, tezkor-tergov tadbirlarini o'tkazish sifatining qoniqarsizligi va protsessual qonunchilik talablarini buzgan holda olingan ma'lumotlardan dalil sifatida foydalanilishi;

beshinchidan, xalqaro amaliyotda e'tirof etilgan jinoyat-huquqiy institutlarning yetarli darajada implementatsiya qilinmaganligi, jumladan yuridik shaxslar jinoiy javobgarligining mavjud emasligi;

oltinchidan, sud-tergov faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish juda past darajada ekanligi va boshqalar.

Ushbu konsepsiyada quyidagilar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari va vazifalari etib belgilab berildi:

- jinoyat qonunchiligi normalarini unifikatsiya qilish;
- jinoiy javobgarlik va jazo tizimini takomillashtirish;
- fuqarolar huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining ta'sirchan va ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlash;
- jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va uyg'unlashtirish;
- jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish;
- jinoyat protsessining yangi shakl va tartib-taomillarini kiritish.

Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha. Fuqarolik qonunchiligining asosiy manbalaridan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi 1993 – 1996-yillarda, ya'ni bundan 24 yil avval, iqtisodiyot endigina rivojlana boshlagan, iqtisodiyotni huquq bilan tartibga solishga kirishilgan bir sharoitlarda ishlab chiqilgan va 1997-yil 1-martdan boshlab amalga kiritilgan edi.

O'tgan yillar davomida mamlakatimizda fuqarolik qonun hujjatlarini takomillashtirish va unifikatsiya qilish masalalariga doir bir qator xalqaro konferensiyalar va davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Ta'kidlash lozimki, Fuqarolik va fuqarolik protsessual Kodekslarini takomillashtirish yuzasidan ishlar olib borilar ekan, fuqarolik qonun hujjatlari rivojlanishining strategiyasi hamda uni bosqichma-bosqich taktik jihatdan amalga oshirish masalalari bo'yicha aniq to'xtamga kelish zarur bo'lib hisoblanadi.

Biz qonun hujjatlari yuzasidan nimalarga ega ekanligimizni va yaqin yillar hamda kelajak istiqboldagi 15-20 yil ichida fuqarolik qonun hujjatlarini rivojlantirish bo'yicha qanday ishlar olib borilishi kerakligi yuzasidan aniq tasavvurga ega bo'lishimiz lozim.

Bu boradagi qonunchilik bazasini yaratish, takomillashtirish hamda ularni amalga oshirish yuzasidan tegishli ishlar rejalashtirilishi kerak. Fuqarolik va Fuqarolik protsessual Kodekslariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Fuqarolik va Fuqarolik protsessual Kodekslarining tegishli matnlarini barcha konstruktiv va mazmun elementlarini tubdan o'zgartirishga yo'naltirilmagan holda asosan mazkur kodeksning ayrim institutlari va normalarini yangilashga, bozor iqtisodiyoti sharoitlariga mos kelmaydigan yoki yuridik texnika qoidalarini buzadigan Kodeksdagi mavjud qoidalarni chiqarib tashlashga hamda bir qator moddalarni yangi tahrirda bayon qilishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Bunda eng asosiy vazifa, chuqur tahlillar va ilmiy asoslarga tayangan holda fuqarolik qonun hujjatlarida vujudga kelgan ayrim bo'shliqlarni to'ldirish, huquqni qo'llovchi uchun qiyinchilik tug'diradigan holatlarni bartaraf etish, tovarlar, ishlar, xizmatlar bozorida erkin raqobatni ta'minlashning huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilishi lozim.

XULOSA

Fuqarolik qonun xujjatlarini takomillashtirish uchun avvalo quyidagilarga aloxida e'tibor qaratish lozim:

- fuqarolik sud ishlarini yuritish to'g'risidagi qonun hujjatlarini yanada takomillashtirishga;
- fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalarini to'laqonli bajarishga;
- sud orqali himoyalani huquqini ta'minlashga;
- sudga murojaat qilish shakllarini tushintirishga
- fuqarolik ishini yuritish va sud hujjatlarini ijrosini ta'minlashga.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. SH.M.Mirziyoyev. «Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir». O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. // 07.12.2019 yil. <https://uza.uz/>.
2. Mirziyoyev SH.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // 25.01.2020 y. <https://uza.uz/>.
3. Ismailov B. Davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning amaliy jihatlari // "O'zbekistonda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish masalalari: nazariya va amaliyot" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. –T., 2007.
4. Akhrorqulov, A. (2020). Non-Profit Organizations: Legislation Reform And Law Enforcement Practice. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 2(10), 129-134.
5. Gulyamov, S., & Akhrorqulov, A. (2022). NOTIJORAT TASHKILOTLAR FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY ASOSLARI: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 1029-1041.
6. Akhrorqulov, A. (2022). NOTIJORAT TASHKILOTLARI TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(6), 893-902.
7. Akhrorqulov, A. (2020). Issues of formation and registration of non-profit organizations. *Scientific research results in pandemic conditions (COVID-19)*, 1(02), 23-26.
8. Mamajonova, D. (2022). KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR–XALQ MANFAATINING ASOSIY MEZONI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 688-693.
9. Dadaboeva, D. A. (2021). Civil-legal regulation of educational services. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 448-453.

SIYOSAT

10. Baratov, M., & Borotov, A. (2021). METHODS AND RESOURCES OF REALIZING THE RIGHT OF PRIVATE PROPERTY OR THE RIGHT TO USE THE LAND AS AN ELEMENT OF PRIVATE PROPERTY. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.4 Legal sciences).
11. Borotov, A. X. (2021). XUSUSIY MULK HUQUQINI AMALGA OSHIRISH SHARTLARI: DE YURE/DE FACTO. *JURNAL PRAVOVIX ISSLEDOVANIY*, 6
12. KO 'CHMAS MULK SOTILGANDA YER UCHASTKASIGA BO 'LGAN HUQUQNING YURIDIK TAQDIRINI BELGILASH A Rahimjonov "Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ... 2 2022
13. INCREASING CIVIL LIABILITY FOR VIOLATION OF RIGHTS TO REAL ESTATE A Rakhimjonov "The american journal of social science and education innovations" 3 (04 ... 1 2021
14. Topildiyev, B. R. (2022). MOL–MULKNI ISHONCHLI BOSHQARISH TUSHUNCHASI VA UNING SHAKLLANISHI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(4), 998-1008.
15. Topildiyev, B. R. (2017). Osnovniye usloviya dogovora doveritelnogo upravleniya imushestvom. *Yurist*, (9), 15-19.